



APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES AND ONLINE PLATFORMS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'gli ¹

Scientific adviser: Mulaydinov Farhod Murotovich ²

¹ 1st year student Foreign Language and Literature: English Kokand University

² Head of Business Department Kokand University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4729566>

ARTICLE INFO

Received: 25th April 2021

Accepted: 27th April 2021

Online: 29th April 2021

KEY WORDS

information

technology, education,
mobile learning, online
platforms, students,
distance learning

ABSTRACT

This article provides a number of guidelines for the use of information technology in education. There is information about various online platforms for teachers and new systems that increase students' enthusiasm for lessons, as well as instructions on how to use them.

TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ONLINE PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li ¹,

Ilmiy rahbar: Mulaydinov Farhod Murotovich ²

¹ Xorjiy til va adabiyoti: Ingliz tili birinchi bosqich talabasi Qo'qon Universiteti

² Biznes kafedrasini mudiri Qo'qon Universiteti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 25-aprel 2021

Ma'qullandi: 27-aprel 2021

Chop etildi: 29-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

axborot texnologiyalari,
ta'lim, mobile learning,
online platformalar,
o'quvchilar, masofaviy
ta'lim.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun bir qator ko'rsatmalar berilgan. O'qituvchilar uchun turli xildagi online platformalar va o'quvchilarni darslarga ishtiroqini oshiruvchi yangi tizimlar haqida ma'lumotlar, ulardan foydalanishga ko'rsatmalar keltirilgan.

Mamlakatimizdagi axborot texnologiyalar haqida gap ketganida har doim va hamma faqat internetimizning sifati, sekinligi va qimmatligi shunga o'xshash salbiy fikrli gaplar bilan o'z e'tirozlarini bildirishadi. Biz esa hozir eng iliq va yaxshi fikrlar bilan yondoshamiz. Hozir kunda yurtimizda aborot

texnologiyalari kundan-kunga rivojlanib bormoqda deb aytsak bo'ladi.

Axborot tushunchasi: axborot (informatiya) tushunchasi lotin tilidagi «informatio» so'zidan olingan bo'lib, bayon etish, tushuntirish, izohlash kabi ma'nolarni bildiradi. Axborot deyilganda biz radio va televideniya xabarlarini, kitob, gazeta,



berilganlar bazasi, kutubxona ma'lumotlarini, insonlar bilan muloqot qilish orqali va ilmiy jurnallardan olingan bilimlarni nazarda tutamiz. Axborot texnologiyalari deganda oddiy misol tariqasida ijtimoiy tarmoqlarni misol tariqasida qilib olsak ham boladi. Chunki bugungi kundan jamiyatimiz odamlari televizor yoki radiodan ham ko'proq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda vaqt sarflayapti. Ayniqsa pandemiya davrlarida. Yaxshilab e'tibor beradigan bo'lsak, pandemiya davri odamlari yangi, zamonaviy va serdaromad kasblar bilan tanishish va uni egallashga yordam berdi. Masalan: bloggerlik, grafik va interyer dizaynerlik, ijtimoiy tarmoqlar (SMM) dizayneri va marketologlik kasblari egalari ko'paydi. Agar siz ushbu kasblardan birini egasi bo'lsangiz, butun dunyo bo'ylab, uyda o'tirgan holatda ishlash mumkin, asosiysi halol va serdaromad. Hech o'ylab ko'rganmisiz, O'zbekistonimizda fantastik va kassabop kinolar kam, yo'q desa ham bo'ladi. Bilsangiz, "Marvel" kinostudiyasi ko'plab fantastik kinolari maxsus effekt beruvchi dasturlar yordamida yaratiladi. Demak bizni ham shunday kinofilmlar ishlab chiqarish ya'ni suratga olish uchun Grafik dizaynerlar va 3D effektlar bilan ishlovchi dasturlarni mukammal biladigan kasb egalari kerak. Axborot texnologiyalarni bugungi kundagi yana bir katta o'rni Dasturiy injinering. Bu ham albatta rivojlanmoqda. Mamlakatimizda dasturlashni o'rgatish uchun alohida lohiya bor. Bu "Bir Million O'zbek Dasturchilari" (<https://uzbekcoders.uz>) loyihasi. Bu loyiha mutlaqo tekin. Ro'yhatdan o'tgandan so'ng o'zingiz qiziqgan dasturlash sohasini tanlab va unda o'qishingiz mumkin. Masofasviy shaklda, uyda o'tirgan holatda o'rganishingiz mumkin.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish, bu darsingiz paytida o'quvchilar e'tiborini 80% o'zingizga tortish demakdir. Chunki, bugungi yoshlarning ko'p qismi

texnologiyalarga qiziqishadi. Darsingiz vaqtida foydalanish uchun bir qator namunalarni ko'rib chiqamiz:

❖ quizizz.com Viktorinalar ushbu sayt o'qituvchilar uchun maxsus platforma bo'lib, o'tilgan mavzu yoki o'zingiz istagan savollar bilan, o'quvchilaringiz o'rtasida musobaqa o'tkazishingiz mumkin. O'qituvchi testlarni o'zi tuzib chiqadi va tog'ri variantlarni saytga taqdim etadi va musobaqa ssilkasini olib o'quvchilarga ulashadi. Ssilka ulashishda eng qulay yo'l Telegram ijtimoiy tarmog'ini tavsiya qilaman. Ushbu saytdan ro'yxatdan o'tish va udan foydalanish haqida ma'lumotlarni YouTube dan ko'rib o'rganishingiz mumkin. Bu saytning ijobiy tomonlari shundaki, siz uyushtirgan musobaqa haqida to'liq statistik ma'lumotlar bilan tanminlaydi. Qancha miqdordagi qatnashilar to'g'ri javob berdi, qanchasi xato, kimlar ko'proq to'g'ri javob topmoqda va uni javob yo'llash tezliginiyam inobatga olgan holda Top reyting yaratadi. O'quvchilar bu platformada test ishlab, musobaqada qatnashganida qiziqqonlik bilan harakat qiladi va o'qiganlari yodida qoladi.

❖ <https://kahoot.com> Kahoot – bu ham viktorina ko'rinishida musobaqa tashkil etish uchun sayt. Bu platformani mobile versiyasi ham bor. Google Play orqali yuklab olishingiz mumkin. O'qituvchi, talab ava mustaqil o'rganuvchilar uchun alohida bo'limlar mavjud.

❖ thinglink.com/ Thinglink o'qituvchilarga musiqa, tovushlar, matnlar va fotosuratlar bilan interaktiv tasvirlarni yaratishga imkon beradi. Ular boshqa veb-saytlarda yoki Twitter va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda bo'lishishi mumkin. Thinglink o'qituvchilarga o'z bilimlarini kengaytirishi mumkin bo'lgan interaktiv tarkib orqali o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan o'quv metodikalarini yaratish imkoniyatini taklif etadi. Hamda, ushbu



platformada 360/VR education texnologiyalaridan foydalanilgan bo'lib, sinfxonani jonli videoda ko'rishingiz mumkin. Sinfxonani qanday tuzishda va uni dizayni juda muhim.

❖ projeqt.com/ Projeqt - bu boshqa variantlar qatorida interaktiv xaritalar, havolalar, onlayn viktorinalar, Twitter xronologiyalari va videofilmlarni joylashtirishingiz mumkin bo'lgan dinamik slaydlar bilan multimedia prezentatsiyalarini yaratishga imkon beruvchi vosita. Sinf mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar o'quvchilar bilan turli xil moslamalarga moslashtirilgan akademik taqdimotlar bilan bo'lishishlari mumkin.

❖ socrative.com/ Ta'limga ishtiyoqmand bo'lgan bir guruh tadbirkorlar va muhandislar tomonidan ishlab chiqilgan Socrative - bu o'qituvchilarga o'quvchilar mobil qurilmalar yordamida, xoh smartfon, ham noutbuk yoki planshet yordamida hal qiladigan mashqlar yoki o'quv o'yinlarini yaratishga imkon beradigan tizim. O'qituvchilar mashg'ulotlar natijalarini ko'rishlari mumkin va bunga qarab, ularni yanada moslashtirish uchun keyingi darslarni o'zgartirishi mumkin.

❖ <https://ed.ted.com> TED-Ed - bu o'qituvchilar, talabalar, animatorlar - umuman bilim va yaxshi g'oyalarni kengaytirishni xohlaydigan odamlar hamkorligida ta'lim darslarini yaratishga imkon beradigan ta'lim platformasi. Ushbu veb-sayt o'qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham ma'lumotlardan foydalanishni demokratlashtirishga imkon beradi. Bu yerda odamlar boshqalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlari mumkin.

❖ <https://www.ck12.org/student/> cK-12 bu Amerika Qo'shma Shtatlari va dunyodagi K12 bozori uchun o'quv kitoblarining narxini pasaytirishga qaratilgan veb-sayt. Maqsadga erishish uchun ushbu platforma o'zgartirilishi va tarkibida video, audio va interaktiv

mashqlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan ta'lim materiallarini yaratish va tarqatish imkonini beradigan ochiq manbali interfeysga ega. Shuningdek, u har bir mintaqada nashr etilishi va kerakli tahrir standartlariga mos kelishi mumkin. CK-12 da yaratilgan kitoblar har qanday o'qituvchi yoki talabaning ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin.

❖ <https://deck.toys/> Decks.Toys - ushbu platforma o'qituvchilarga o'zlarining oson vositalaridan foydalangan holda onlayn darslar yaratishda va almashishda yordam beradi. Dars davomida turli xil o'qitish yo'llarni taklif qilish, darsning boorish jarayonini yanada quvnoq va zavqli qilishga yordam beradi. (Izoh: O'qituvchilar va talabalardan Google yoki Microsoft hisob qaydnomalariga ega bo'lishlarini talab qiladi.)

❖ <https://edu.google.com/intl/ru/products/classroom/> Google Education - ko'p o'qituvchilar buni allaqachon o'z sinflari uchun eng yaxshi virtual o'quv platformalaridan biri sifatida ishlatishadi. Bu yerda yangiliklar kashf etish uchun juda ko'p narsa bor, ko'plab texnologiyalari foydalanish uchun oson, shuning uchun sho'ng'ishdan qo'rqmang! Ishni boshlaganingizdan so'ng, Google Meet, Google Slides manbalaridan ham bemalol foydalana olasiz.

❖ <https://www.microsoft.com/en-us/education/products/teams> MicrosoftEdu - Microsoftning ta'lim uchun yaratilgan online platformasi juda foydali va katta auditoriyaga ega! Birgalikda dars olib borsa bo'ladigan sinflarni yaratish, professional o'quv jamoalarida bog'lanish va hamkasblar bilan bog'lanish imkoniyati. Shaxsiy va guruh suhbatlarini olib borish, fayllarni saqlash va hatto platforma orqali qo'ng'iroqlarni amalga oshirish. Bundan tashqari, sizning virtual sinfingiz xavfsiz tarzda ta'minlashingiz mumkin.

❖ <https://eduplanet21.com/> Edeplanet - ushbu platformada o'qituvchilar ta'lim



sohasidagi eng taniqli rahbarlarining o'qitish yo'llari to'plamidan foydalanishlari mumkin. Mavzularni qanday tushuntirish, talabalarning e'tiborini jamlash tog'risida bilimlarni dunyoning tajribali pedagoglarning nazaryalaridan foydalanishingiz mumkin. Yuqorida online platformalar sinfxonangizda foydalanish mumkin bo'lgan yangi online platformalar ro'yxati bilan tanishib chiqdingiz. Ulardan foydalanish, darsingiz

sifatini oshirishga juda katta ta'sir o'tkazadi. Bu platformalarning bir qismi bizning universitetda foydalaniladi. Darslari davomida ushbu online platformalardan foydalanadigan darslarga kirganimizda, u darsga qiziqish, online viktorina orqali talabalar orasida do'stona raqobat, darslarni o'zlashtirishimizda yordam berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A. Abduqodirov, A. G. (2004). *Axborot Texnologiyalari*. Toshkent: "O'qituvchi"
2. Maxarov, T. A. (2012). *Axborot tizimlari nazriy asoslari*. Toshkent.
3. Qosimov, S. S. (2006). *Axborot texnologiyalari*. Toshkent: "Aloqachi"
4. Solidjonov, D. Z. o'g'li. (2021). STEAM TA'LIM TIZIMI VA UNDA XORIY TILLARNI O'QITISH. *Science and Education*, 2(3), 309-312. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1144>
5. Solidjonov, D. Z. o'g'li. (2021). THE IMPACT OF THE DEVELOPMENT OF INTERNET TECHNOLOGIES ON EDUCATION AT PANDEMIC TIME IN UZBEKISTAN. СТУДЕНТ ГОДА 2021: сборник статей XVII Международного научноисследовательского конкурса. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». – 2021. – 154 с. <https://naukaip.ru/wpcontent/uploads/2021/02/%D0%9A-282.pdf>